

MUSTAQILLIK YILLARIDA IMOM AL-BUXORIY XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISHDA DOIR TADBIRLAR

Guldona Mamanovna Taniyeva

Nizmoiy nomidagi

Toshkent Davlat Pedagogika universiteti

“Jahon tarixi” kafedrasi v/b. professori

e-mail: guldona1970@mail.ru

Naima Nurbek qizi Ungarova

Nizmoiy nomidagi

Toshkent Davlat Pedagogika universiteti talabasi

e-mail: kambarovanaimanur@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston hukumati tomonidan buyuk hadisshunos alloma Ismoil al-Buxoriyning xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida fikr yuritilgan. Xususan, alloma asarlarining nashr etilishi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etish uning zamонавиy ko'rinishda katta rekonstruksiya etilishiga doir amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Imom al-Buxoriy, hadis, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, turizm, ziyoratgoh, ziyorat, Samarkand.*

ACTIVITIES IN PERPETUATING THE MEMORY OF IMAM AL-BUKHARI DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article highlights the measures taken by the Government of Uzbekistan to perpetuate the memory of the great Hadith scholar Ismail al-Bukhari. In particular, the work carried out on the publication of Ismail al-Bukhari's works and establishment of the Imam Bukhari International Research Center, its major reconstruction in its modern form was analyzed.

Keywords: *Imam al-Bukhari, Hadis, Imam Bukhari International Research Center, tourism, shrine, pilgrimage, Samarkand.*

KIRISH

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar qatorida O‘rtta Osiyodan yetishib chiqqan buyuk allomalarining hayoti va faoliyatini, ilmiy merosini tadqiq etish hamda ularning qabrlarini obod etib, xotiralarini abadiylashtirish juda dolzarb masalalar qatoridan o‘rin oldi. Bunga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilishi esa masalaga doir kata-katta loyihalarning amalga oshirilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi xayrli ishlar ham ichki, ham tashqi turizm sohalarining taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mustaqillik yillarda buyuk hadisshunos alloma imomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy (810-870) ilmiy merosini tadqiq etish bilan birga uning qabrini obod etish borasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Zero, Ismoil Buxoriyning qabri islom olaming barcha mintaqasida tabarruk sanalgan¹, uni ziyorat qilishni barcha musulmon orzu qilgan.

Ismoil al-Buxoriy 825-yilda onasi va akasi bilan haj safariga chiqib, o‘sha yerda qolib, u ilm olish, payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini to‘plash, tartibga solish, ulardan qaysi biri to‘g‘ri, qaysi biri payg‘ambarga (s.a.v.) taalluqli emasligini aniqlash maqsadida Makka, Madina, Shom, Misr, Falastin, Iroq shaharlariga safar qilgan. Shu tariqa jami 600 ming hadis to‘plab, bulardan 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarni yod olgan. 600 ming hadisdan 7265 tasini “Al-jome as - sahih” (ishonchli to‘plam) kitobiga kiritdi. “Al-jome as-sahih” allomaning eng buyuk va mashhur asari hisoblanib, unda kiritilgan ishonchli hadislar soni takrorlanadiganlari bilan 7275 tani tashkil etadi, takrorlanmaydigan hadislar 4000 tadir. Asar Islom olamida Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi ishonchli manba vazifasini o‘tab kelmoqda².

Mustaqillik davrida Imom Buxoriy ijod mahsulini o‘rganish va keng targ‘ib etish ishlari amalga oshirildi va alloma mangu qo‘nim topgan maskan obod qilindi. Bu boradagi dastlabki ish 1991-yilda Imom al-Buxoriyning 4 jildli hadislari to‘plami “Al-jome as-sahih” asarining o‘zbek tilida nashr qilinishi bo‘ldi. 1997-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al- Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida” gi qarori³ qabul qilindi. 1998-yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilli munosabati Samarqand viloyatidagi Imom al-Buxoriy maqbarasi va masjidini tamirlash hamda 1998-yilning avgust oyigacha bu yerda qadimiy milliy me’morchilik an’analari bilan uyg‘unlashgan zamonaviy inshootlardan iborat betakror muhtasham yodgorlik majmuuni barpo etish ishlari tugallash rejalashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi,

¹Taniyeva G.M. XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rtta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi. Toshkent. O‘zkitob savdo nashiryot matbaa ijodiy uyi, 2021. 48-bet.

²Hoji Ismatulloq Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. Toshkent. Sharq, 2005. –B. 48.

³[O‘zbekiston](http://www.https://lex.uz) Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.1997-yildagi 217-son qarori / www.https://lex.uz.

shuningdek, Fanlar Akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Samarqand va Buxoro viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda mamlakat hududidagi Imom al-Buxoriy nomi va davri bilan bog‘liq qadamjoy, obidalar ro‘yhatini aniqlash va ularni tamirlash – konservatsiyalash bo‘yicha belgilangan tartibda taklif ham kun tartibiga qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, YUNESCO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston Musulmonlari idorasi va Samarqand viloyati hokimligi bilan birgalikda YUNESCO ning xalqaro tadbirlari doirasida 1998-yil sentabr oyida Samarqand shahrida “Imom al-Buxoriy va dunyo madaniyatida tutgan o‘rni” mavzuyida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi 1997-1998 yillarda Imom al-Buxoriy asarlari hamda uning hayoti va ijodiga oid nashrlarni o‘zbek, ingliz, arab, rus tillarida chop etishni nashiriotlarning rejasiga kiritildi. “O‘zbekkino” davlat-aksionerlik kompaniyasiga 1998-yilda Imom al-Buxoriy merosining mohiyati va bugungi kundagi ahamiyatini ochib beruvchi 2 qismli xujjatli ilmiy-ommabop film yaratish va uning xorijiy tillarga dublyaj qilinishini ta’minlash kabi vazifalar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan ushbu loyiha Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo‘qon va Shahrисabzning mohir ustalari tomonidan sakkiz oy mobaynida barpo qilindi va yodgorlik majmuasi 1998-yil 23-oktabr kuni rasman ochilgan. Maqbara, masjid, ma’muriy bino va milliy me’morchilik an’analarida barpo etildi. Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, Islom Karimov Saudiya Arabistoniga 1992-yil aprel oyida qilgan davlat tashrifi chog‘ida Saudiya Arabiston Podshohi, Ikki muqaddas masjid xodimi Fahd bin Abdulaziz tomonidan sovg‘a qilingan Kisva- Ka’ba yopinchig‘ining bir bo‘lagi ham Imom al-Buxoriy majmuasi muzeyiga taqdim etildi¹. 2008 – yili 23 – mayda “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot Markazini tashkil etish chora – tadbirlari tog‘risida”gi qaror qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Perzidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son qarori ijrosini taminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risidagi” nizomga asosan, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining asosiy vazifalar, huquq va majburiyatları, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

¹ <https://kun.uz>.

Ma'lumki, Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabi ham tashkil etildi. Markaz musulmon dunyosi buyuk mutafakkirlarning boy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasi va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqr tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo munosabatlarda bag'rikenglik, o'zaro hurmat tinch-totuv hayotda intilish kabi islom dining asil qadryatlari va madaniyatini to'g'ri tarbiyalash, xalqaro muloqotni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2022-yil 15-avgustda "Imom Buxoriy" ordeni tasis etildi.



Shuningdek, keying yillarda Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini rekonstruksiya qilish va kengaytirish borasida ham keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish rejalshtirildi. Hozirgi zamon talablari asosida uning yangi loyihasi ishlab chiqildi. Prezident huzurida bir necha bor taqdimot qilinib, takomillashtirildi. Jahon tajribasi ham o'r ganildi. Unga ko'ra, katta masjid, to'rtta minora va keng ayvonlar qurish, xiyobon, uning atrofida mehmonxonalar hamda boshqa infratuzilma ob'ektlari barpo etish, ziyoratchi va boshqa sayyoohlar uchun qulayliklarni kengaytirish bo'yicha majmuani jahon andozalari darajasida sifatli qurish, ziyoratchilarga qulayliklarni yaratish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

2021-yil Ramazon kunlarida ziyoratgohning qurilishi boshlandi. Bu yerda katta masjid, to'rtta simmetrik minora, baland ayvonlar, yo'ldan kirib kelishda xiyobon barpo etiladi. Ko'p sonli ziyoratchilarga zamonaviy qulayliklar yaratish uchun 7 ta mehmonxona, 3 ta avtoturargoh va avtobekat, supermarket, bozorcha barpo etiladi. Shuningdek, oshxonalar, hunarmandchilik buyumlari rastasi, hammom, tahoratxona, kushxona qurilishi belgilangan. Qurilajak yangi majmua ular bilan mutanosiblikda ulkan maskan hosil qiladi. Endi bu yerda ziyoratchilar uchun hamma sharoitlar bo'ladi.

2021-yil 15-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi va Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Shuningdek, Prezident 2022-yil 7-fevralda majmuaning qurilish

loyihasi taqdimoti bilan tanishdi. Davlat rahbari Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasida ishtirok etish uchun 2023-yil 16-oktabr va 1-noyabr kunlari yana Imom al-Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi va majmuadagi pardozlash namunalarini ko‘zdan kechirdi¹.

Majmua loyihasiga ko‘ra uning devorlari milliy naqshlar, pardozbop toshlar bilan sayqallanadi. Uning devorlariga qadimiy uslubda Qur’oni karim suralari va hadislari yoziladi va yorqin ranglardan foydalaniladi. Maqbaraning o‘ng tomonida yerostida galereya qurilmoqda. Bu yerda ziyoratchilar alloma qabrini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Imom al-Buxoriy merosini tadqiq etish hamda uning Samarqand viloyatida joylashgan qabri va majmuasi obodonlashtirib zamonaviy usulda kehgaytirishga doir keng ko‘lamli ishlarning amalga oshirilishi natijasida shu zaminda yashab ijod qilgan allomalarining ilmiy merosidan bahramand bo‘lish imkonii kengayadi hamda O‘zbekistonga xorijiy sayyoohlar oqimi yanada oshadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Taniyeva G.M. XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi. Toshkent. O‘zkitob savdo nashiryot matbaa ijodiy uyi, 2021. -B. 48.
2. Hoji Ismatullox Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. Toshkent. Sharq, 2005. –B. 48.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.1997-yildagi 217-sont qarori / www.lex.uz.
4. <https://kun.uz>.
5. <https://president.uz/ru>.

¹ <https://president.uz/ru>.